



**ANGLIYA HARBIY FLOTI VA ATLANTIKA SAVDO YO'LLARI
XAVFSIZLIGI (1759 YIL LAGOS VA KIBERON DENGIZ JANGLARI
MISOLIDA)**

Shaymanov Sh.E.

**Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
tarix yo'nalishi magistr talabasi.**

sherbekshaymanov27@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada XVIII asr o'rtalaridagi harbiy va siyosiy qarama-qarshiliklar fonida Angliya harbiy flotining roli tahlil qilinadi. Tadqiqot yetti yillik urush doirasida olib borilib, asosiy e'tibor Atlantika savdo yo'llari ustidan nazorat uchun kurashga qaratiladi. Maqolada 1759 yilda bo'lib o'tgan Lagos va Kiberon ko'rfazi janglari Angliya harbiy flotining hal qiluvchi g'alabalari sifatida ko'rib chiqilib, ular Britaniyaning dengiz ustunligini ta'minlagan burilish nuqtasi sifatida baholanadi. Shuningdek, ushbu g'alabalarning natijasida harbiy flotning Fransiyaning dengizdagi imkoniyatlarini cheklab, Atlantika savdo yo'llari xavfsizligiga va iqtisodiy rivojlanishiga ko'rsatgan ta'siri ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Angliya harbiy floti, Atlantika savdo yo'llari, dengiz ustunligi, Angliya-Fransiya raqobati, 1759 yil dengiz janglari, Logos dengiz jangi, Kiberon qo'ltig'i dengiz jangi, Angliya savdosi.

Abstract. This article examines the role of the British Royal Navy in the context of the military and political conflicts of the mid-eighteenth century. It focuses on the Seven Years' War and, in particular, on the struggle for control over the Atlantic trade routes. Special attention is given to the naval battles of Lagos and Quiberon Bay in 1759. These battles are considered as decisive victories of the Royal Navy and are viewed as a turning point in establishing British naval supremacy. As a result of these victories, France's naval



capabilities were significantly limited, while British control over Atlantic trade routes became more secure. The study also highlights that these developments contributed not only to military success but also to the expansion of trade and the strengthening of Britain's economic position.

Keywords: British Royal Navy, Atlantic trade routes, naval supremacy, Anglo-French rivalry, naval battles of 1759, Battle of Lagos, Battle of Quiberon Bay, British trade.

XVIII asr Yevropa davlatlari o'rtasida o'zaro kurash va raqobat asosida kechdi va bu o'zaro raqobat va kurash nafaqat quruqlikda balki dengizlarda ham sodir bo'ldi. Bu jarayon ayniqsa yetti yillik urush davomida keskin tus oldi. Bu davrda Atlantika okeani gegemonlikka intiluvchi davlatlar uchun qaysidir ma'noda kurash maydoniga aylandi. Chunki Atlantika okeani Yevropa, Afrika va Amerikani bog'lovchi muhim savdo yo'llaridan biri edi. Mustamlaka, xomashyo va qullar savdosi aynan shu hudud orqali amalga oshirildi. Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya va Gollandiya ehtimol shu sabab ham dengiz savdo yo'llari ustidan nazorat o'rnatishga intildi va bu ko'pincha o'zaro urushlarga sabab bo'ldi. Dengiz kuchi tarixiga nazar tashlasak ham buni ko'rishimiz mumkin. Mahan ta'kidlaganidek, dengiz kuchi tarixi asosan, garchi faqat shundan iborat bo'lmasada, davlatlar o'rtasidagi kurashlar, o'zaro raqobatlar va ko'pincha urush bilan yakunlanadigan kuch ishlatish tarixidir [4. B. 1].

Shuni takidlash lozimki, Atlantika hududida bir nechta davlatlar o'rtasida raqobat va kurash mavjud bo'lgan bo'lsada asosiy qarama-qarshilik Buyuk Britaniya va Fransiya o'rtasida bo'ldi. Aynan ikki davlat o'rtasidagi kurash dengiz ustunligi va savdo yo'llari nazorati uchun olib borilgan raqobatning markazida bo'ldi. XVIII asrda davlatlar o'rtasidagi raqobat ziddiyatli bo'lib o'z tashqi siyosatini muvozanatni saqlashdan ko'ra ustunlikka erishishga qaratdi. Jumladan, tadqiqotchi Sofka takidlaganidik, nizolar davlat



siyosatining odatiy shakli sifatida talqin qilingan va butun asr davomida Britaniya hamda Fransiya rahbarlari muvozanat tenglikdan ko'ra ustunlikka intilganlar [8. B. 157]. Ushbu vaziyatda dengiz ustunligi muhim va hatto hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Ayniqsa harbiy flot Atlantika savdo yo'llari ustidan nazoratni olishda muhim rol o'ynadi. 1759 yilda Angliya va Fransiya o'rtasida bo'lib o'tgan Lagos va Kiberon qo'ltig'i dengiz janglari XVIII asr o'rtalaridagi harbiy-siyosiy jarayonlarda muhim o'rin tutadi. Mazkur janglar Buyuk Britaniyaning dengiz ustunligini mustahkamlashda, Atlantika savdo yo'llari xavfsizligini ta'minlashda hamda mustamlakalar bilan savdo aloqalarining kengayishida muhim omillardan biri bo'ldi. Ayniqsa, bu jarayonda Angliya harbiy floti hal qiluvchi rol o'ynadi. Tarixshunoslikda 1759 yil voqealarining ahamiyati borasida turli qarashlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar bu voqealarni hal qiluvchi burilish nuqtasi sifatida baholasa, boshqalari Britaniya ustunligini oldindan shakllangan iqtisodiy va strategik omillar bilan izohlaydi. Shu sababli, 1759 yil voqealarining haqiqiy o'rni va ularning dengiz ustunligi hamda Atlantika savdosiga ta'siri masalasi alohida tahlilni talab qiladi.

XVIII asr boshlarida dengiz orti savdosi rivojlanib borayotgan Britaniya iqtisodining asosiy tayanchlaridan biri edi. Uning ko'lami qanchalik ekanini quyidagi ma'lumotlar asosida ko'rib chiqamiz. Minchinton ma'lumotlariga ko'ra ingliz eksporti 1700-1709 yillarda 4,5 million funtni tashkil etgan bo'lsa, 1740-1749 yillarda 6,5 mln funtni tashkil etgan [6. B. 15]. Shu bilan birga u savdo ko'lami nisbatan sekin yiliga 1 foiz bo'lganini ta'kidlaydi. Dengiz savdosining miqyosini qul savdosi orqali ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, Thomas qayd etishicha 1721-1730 yillarda inglizlar Amerikaga 100 mingdan ortiq qullarni olib o'tgan bo'lsa, 1730 yillarga kelib bu ko'rsatgich taxminan 170 mingga yetgan [9. B. 291-292]. Bundan tashqari, 1710 yilga kelib yiliga 10 mingdan ortiq qullarni sotgan va buni muallif quyidagicha baholaydi: Atlantika savdosi mamlakat uchun eng foydali iqtisodiy faoliyatga aylangan edi.



Shuningdek inglizlar o'n yil ichida 4 ming 800 qul yetkazib berish majburiyatini olgan, ayrim bitimlarda esa 200 ming peseta (XVIII asr Ispaniya pul birligi.) yoki 45 ming funt miqdorida to'lovlar nazarda tutilgan [9. B. 281]. Ayni vaqtda bu savdo ichki bozorga ham ta'sir ko'rsatgan. Masalan, 1739-yilda Manchesterning eksport savdosi deyarli ahamiyatsiz bo'lib, yiliga 14 funtni tashkil etgan. Yigirma yil o'tgach, u 100 ming funtdan oshdi va 1779-yilga kelib 300 ming funtdan ham ortdi [9. B. 296]. Shu tariqa Buyuk Britaniyaning dengiz orti xususan, atlantika okeani savdo ko'lami XVIII asr boshlarida uning iqtisodning asosiy tayanchlaridan biriga aylandi. Biroq ushbu keng ko'lamlı dengiz osha savdoga mazkur asrda yuz bergan urushlar xavf solib turardi.

Davis Ralph ma'lumotlariga ko'ra, urush vaqtida dengiz savdosi bir qator muammolarga uchragan, urush davrida safarlarning cho'zilishi har bir kema ko'rsatishi mumkin bo'lgan xizmat miqdorini kamaytirar, ta'minotning qisqarishi va yuqori xarajatlar esa savdogarlar to'lashga majbur bo'lgan yuk tashish narxlarini keskin oshirardi. [2. B. 334]. Statistik ma'lumotlar ham buni ko'rsatadi jumladan, agar tinchlik davrida kemalar kirishi 294 taga yetgan bo'lsa, urush davrida esa bu ko'rsatgich 82 taga tushib ketgan [2. B. 334]. Shu bilan birga, urush vaqtida o'z o'zidan sug'urta xarajatlari ham oshib ketgan masalan, 1730 yillarda sug'urta stavkasi 1,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1739-1748 yillarda ya'ni urush vaqtida 6-8 foizga yetgan. Xulosa qilib aytish mumkinki XVIII asr birinchi yarmi dengiz savdosi Britaniya iqtisodining asosiy tayanchlaridan biri bo'lishi bilan birga dengizdagi to'qnashuvlar uning barqarorligiga tahdid solgan. Ayniqsa Britaniya va Fransiya o'rtasidagi raqobat Atlantika hududida savdo yo'llari ustidan nazorat nazorat uchun keskin kurash shaklida kechdi va 1759 yil makur to'qnashuvlarning burilish nuqtasi bo'ldi. Bu kurashning hal qiluvchi sababi faqat quruqlikdagi janglar emas aksincha dengiz ustidan ham nazorat edi.

Mahan esa buni quyidagicha tushuntiradi: Dengiz kuchi bu kurashga o'z ta'sirini bevosita ko'rsatmaydi biroq u bilvosita ikki yo'l bilan sezildi va bu



birinchidan, Angliyaning katta boyligi va krediti unga Fridrixga subsidiyalar berish imkonini berdi va bu mablag'lar uning tejamkor va mohir qo'lida katta samara berdi ikkinchidan esa, Angliyaning Fransiyaning mustamlakalari va uning o'z qirg'oqlariga qilgan hujumlari natijasida yuzaga kelgan qiyinchiliklarda, uning savdosining vayron qilinishida va Fransiyaning o'z flotiga ajratishga majbur bo'lgan mablag'larida bu mablag'lar aslida juda kam va istamay berilgan bo'lsada o'z aksini topdi [4. B. 295]. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki dengiz ustunligi faqat harbiy emas balki iqtisodiy moliyaviy ustunlikni ham belgilagan. 1758-1759 yillarga kelib Britaniya o'z dengiz strategiyalarini o'zgartira boshladi.

Fransiyaning Atlantika portlari kuchli nazoratda ushlab turildi, ayniqsa Brest, shunda katta flotlar yoki kichik eskadralar jang qilmasdan chiqib keta olmas edi [4. B. 296]. 1759 yil avgust oyida Lagos jangida Fransiya flotiga jiddiy zarba berildi. Mahan bu voqeani quyidagicha tasvirlaydi: Ingliz admirali ularni (fransuzlarni)quvib borib hujum qildi ikki kemani qo'lga oldi va qolganlarini Portugaliya betarafligiga qaramasdan yoqib yubordi. Bu haqorat uchun rasmiy uzr so'rashdan boshqa hech qanday tovon to'lanmadi, Portugaliya Angliyaga juda bog'liq bo'lgani uchun jiddiy norozilik bildira olmadi [4. B. 299]. Bunda ingliz floti dushman flotini to'liq yo'q qilish orqali Fransiyaning dengizdagi imkoniyatlarini keskin kamaytirgani ko'rishimiz mumkin. Britaniya va Fransiya o'rtasida 1759 yil yana bir hal qiluvchi burilish jangi Kiberon jangi bo'ldi. Bu janglarga umuman Fransiya hukumati juda katta mablag' sarfladi va bu mablag'ning katta qismi qarz hisobiga edi.

“Kvebekning egallanishi Fransiya uchun katta zarba bo'ldi. Angliyani bosib kirish orqali britaniyalik investorlarni vahimaga solishni rejalagan Choiseul endi vaziyat butunlay teskarisiga o'zgarganini ko'rdi. Fransiya hukumatining krediti allaqachon uchinchi yil davom etayotgan katta qarz olish tufayli keskin zo'riqib ketgan edi: 1759-yilda 95 million livrdan ortiq qarz va fermer-general tizimi orqali yana 72 million livr avans olingan edi. Uch yil



ichida (avanslardan tashqari) taxminan 365 million livr qarz olindi, bu summa 1759-yilda hukumatning sof soliq daromadlaridan ham katta edi, ular atigi taxminan 300 million livrni tashkil etgan (umumiy daromad 620 million livr bo'lgan, xarajatlar bilan birga). Shunga qaramay, hukumat yil davomida taxminan 500 million livr xarajatlarni qoplash uchun ruhoniylardan 24 million livr subsidiya va amaldorlardan qo'shimcha 8 million livr yig'im olishga majbur bo'ldi va yana ko'plab to'lovlar kechiktirildi, chunki joriy daromadlar o'tgan yillardagi kreditorlar qarzlarini to'lashga sarflandi.

1759 yilda quruqlik qo'shinlari byudjeti 152 million livrni, dengiz floti byudjeti esa taxminan 57 million livrni tashkil etdi (ammo bu mablag'ning hammasi amalda ajratilmagan). Ammo ko'rinishicha, armiya o'z byudjetini taxminan 17 million livrga oshirib yuborgan, flot esa bundan ham ko'proq (va bu ehtimol dengiz vazirligining Kanadadagi xarajatlarini deyarli o'z ichiga olmaydi)"[3. B. 158-159]. Robson esa buni quyidagicha yozadi Ko'plab fransuz savdogarlari katta zarar ko'rdi: Le Havr savdogarlari 1,2 million livr, La Roshel esa 800 ming livr yo'qotdi. Bu Fransiyaning Germaniyada urushni davom ettirish qobiliyatiga ham ta'sir ko'rsatdi, chunki 1760 yil uchun fransuz armiyasi byudjeti 70 million livrga ya'ni uchdan biridan ko'proqqa qisqartirildi. Shuazol (Etyen Fransua de Shuazol tashqi ishlar vaziri, keyinroq urush va dengiz ishlari vaziri - izoh muallifga tegishli) yozishicha, Fransiya "go'yoki bankrotlik holatiga tushdi" va kumush hamda oltin buyumlarni sotishga chaqirdi. Bundan xulosa qilish mumkinki, Britaniyaning dengiz floti orqali ushbu janglarda Fransiya qilgan bosimi Fransiyaning faqat harbiy emas, balki iqtisodiy moliyaviy jihatdan ham sindirgan. Natijada "Kiberon jangidan keyin Fransiya nafaqat mag'lub bo'ldi, balki bosqin rejasidan butunlay voz kechishga majbur bo'ldi 25 noyabr kuni fransuzlar nihoyat Britaniyani bosib olish rejasidan voz kechdi, biroq bu qaror ular yo'qotgan oltita liniya kemasini ham, taxminan 2 500 nafar zobit va dengizchilarning hayotini ham saqlab qolish uchun juda kech edi"[3. B. 162].



Britaniyalik harbiy tarixchi Martin Robson ushbu voqealarni izohlar ekan u quruqlikdagi qo'shinlarni birlashsishida ham dengiz floti muhim rol o'ynaganini ta'kidlaydi. "Ikki kuch o'rtasidagi yaqin hamkorlik general-mayyor Jeyms Volfning kelishi va jangdagi muvaffaqiyatini ta'minladi, ammo Kvebekdagi britan g'alabasining uzoq muddatli sababi Qirollik flotining strategik, operatsion va taktik ustunligi bo'lib, aynan shu ustunlik umumiy muvaffaqiyat uchun keng sharoit yaratdi"[7. B. 125-126]. Umuman 1759 yil Logos va Kiberon janglari hal qiluvchi burilish ekanligini Daniel Baut ham ta'kidlaydi. Xususan u mazkur ikki hal qiluvchi jangga to'xtalar ekan harbiy floting dengiz startegiyasiga e'tibor qaratadi va admiral Havkening holatidan baho beradi. "U uzoq vaqt davomida qat'iy ishonib kelgan - va bu e'tiqod uning oldingi harakatlarini ham bir necha bor boshqargan - ya'ni fransuz harbiy kemasi yoki eskadrasini yo'q qilish imkoniyati hech qachon qo'ldan boy berilmasligi kerak."[1. B. 387]. Demak, bu yerda asosiy nuqta shundaki, Britaniya floti faqat g'alaba qilishni emas, balki raqibni butunlay o'yin tashqarisiga chiqarishni maqsad qilgan. Bu prinsip Keberon jangida amalda qo'llanildi va natijada Fransiya floti strategik jihatdan yo'q qilindi.

Manbada bu holat juda aniq tasvirlangan "Yuzaki qaraganda butun flot yo'q qilinmagandek tuyuladi: kemalarning faqat uchdan biri cho'ktirildi, vayron qilindi yoki qo'lga olindi. Biroq amalda butun flot yo'q qilingan edi, chunki jang natijasida qolgan uchdan ikki qismi Vilaine daryosida qattiq blokadaga olingan yoki Rochefortda Britaniya floti nazorati ostida qamalib qolgan edi. Brest floti urushning qolgan qismida ahamiyatini yo'qotdi. Kiberon qo'ltig'i haqiqatan ham hal qiluvchi jang bo'ldi"[1. B. 386]. 1759 yil tarixda oddiy harbiy g'alabalar yili emas, balki go'sha vaqtdagi Britaniya va Fransiya kuchlar muvozanati tubdan o'zgargan burilish nuqtasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu yilni Frank McLyn quyidagicha baholaydi: "1759 yil amalda Britaniyani XVIII asrning global superkuchiga aylantirdi, aynan shu davrda haqiqiy Britaniya imperiyasi shakllana boshladi va bu zamonaviy dunyoda



ingliz tilining ustunligi uchun asos yaratdi” [5. B. 599]. Ushbu fikrdan ko‘rinib turibdiki, 1759 yil nafaqat harbiy muvaffaqiyatlar, balki imperiya sifatida Britaniyaning shakllanish jarayonini tezlashtirgan strategik burilish nuqtasi bo‘lgan.

Bu jarayonni yanada chuqurroq tushunish uchun natijaviy oqibatlarga e‘tibor qaratish zarur. Muallifning yana bir muhim xulosasi shuni ko‘rsatadi: “Xulosa oddiy: agar 1759 bo‘lmaganida, Yetti yillik urushda g‘alaba bo‘lmas edi, Shimoliy Amerikada g‘alaba bo‘lmas edi, Britaniya imperiyasi kengaymas edi, koloniyalar ajralib chiqmas edi va ehtimol AQSh ham paydo bo‘lmas edi” [5. B. 604]. Bu fikr sabab oqibat zanjirini juda aniq ochib beradi: 1759 yildagi g‘alabalar global tarixiy jarayonlarning keyingi rivojiga bevosita ta‘sir ko‘rsatgan. 1759 yilda bo‘lib o‘tgan ushbu dengiz janglarida erishilgan g‘alaba Britaniyaning Atlantika savdosida keskin o‘shishga olib keldi. Bu jarayonni R. P. Thomas va D. N. McCloskey quyidagicha baholaydi: “Bir asrlik kengayishdan so‘ng (6,5 baravar o‘shish bilan), ular Angliya importining 32 foizini ta‘minladi.

Shimoliy Amerika koloniyalari va Vest-Hindiyaga birgalikdagi eksport asr davomida hayratlanarli darajada - 2300 foizga oshdi. Asr oxiriga kelib, Atlantika koloniyalari metropoliyadan eksport qilinadigan barcha mahsulotlarning yarmidan ko‘prog‘ini qabul qilar edi” [10. B. 91]. Mazkur o‘shish 1759-yildagi dengiz g‘alabalarining bevosita natijasi bo‘lib, Angliya harbiy flotining ustunligi savdo yo‘llari xavfsizligini ta‘minlab, Britaniyaning Atlantika hududida yetakchi iqtisodiy kuchga aylanishiga imkon yaratdi. Xulosa qilsak, 1759 yilda bo‘lib o‘tgan Lagos va Kiberon ko‘rfazi janglari Britaniyaning dengiz ustunligini ta‘minlagan hal qiluvchi voqealar bo‘ldi. Angliya harbiy floti esa ushbu janglarda strategik ustunlikka erishib, Fransiyaning dengizdagi imkoniyatlarini keskin chekladi va Atlantika savdo yo‘llari xavfsizligini mustahkamladi. Shu tariqa, ushbu g‘alabalar Yetti yillik



urush doirasida muhim burilish nuqtasi bo'lib, Britaniyaning iqtisodiy va siyosiy mavqeini mustahkamlashda hal qiluvchi rol o'ynadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Baugh D. The Global Seven Years' War 1754–1763: Britain and France in a Great Power Contest. – 2nd ed. – London: Routledge, 2021. 387, 386-betlar.
2. Davis R. The Rise of the English Shipping Industry in the Seventeenth and Eighteenth Centuries. – London: Macmillan, 1979. 334-bet.
3. Dull J. R. The French Navy and the Seven Years' War. – Lincoln: University of Nebraska Press, 2005. 158, 159, 162-betlar.
4. Mahan A. T. The Influence of Sea Power upon History, 1660-1783. – Boston: Little, Brown and Company, 1890/1918. 1, 296, 299-betlar.
5. McLynn F. 1759: The Year Britain Became Master of the World. – London: Jonathan Cape, 2004. 599, 604-betlar.
6. Minchinton W. E. The Growth of English Overseas Trade in the Seventeenth and Eighteenth Centuries. – London: Methuen, 1962. 15-bet.
7. Robson M. A History of the Royal Navy: The Seven Years War. – London: I.B. Tauris, 2016. 125-126-betlar.
8. Sofka J. R. The Eighteenth Century International System: Parity or Primacy? // Review of International Studies. – 2001. 157-bet.
9. Thomas H. The Slave Trade: The Story of the Atlantic Slave Trade, 1440–1870. – New York: Simon & Schuster, 1997. 291, 292, 281, 296-betlar.
10. Thomas R.P., McCloskey D.N. Overseas Trade and Empire, 1700–1860 // The Economic History of Britain since 1700. Vol. 1: 1700–1860 / ed. by R. Floud, D. McCloskey. – Cambridge: Cambridge University Press, 1981. 91-bet.